



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Qulmurodova Sayyora Safarovna

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti o'qituvchisi*

TA'LIM JARAYONIDA YOSHLAR BILAN MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TIZIMLI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida, zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, yoshlar ma'naviy bilim darajasini tizimli yondashuvning ilg'or texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayoni haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Milliy mafkura, xalq, odob-ahloq, jamiyat, allomalar, ta'lim-tarbiya, jamoa, tizim, orzu, maqsad, texnologiya

ТЕХНОЛОГИИ СИСТЕМАТИЧЕСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ У МОЛОДЕЖИ В ВО ВРЕМЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация: В данной статье речь идет о процессе повышения качества образования на основе современных требований в результате комплексных реформ в сфере образования в нашей стране, в том числе развития уровня духовных знаний молодежи на основе передовых технологий системный подход.

Ключевые слова: национальность, идеология, человек, нравы, общество, соседство, образование, община, семья, мечта, цель.

TECHNOLOGIES OF SYSTEMATIC ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN YOUTH DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This article is about the process of improving the quality of education based on modern requirements as a result of comprehensive reforms in the field of

education in our country, including developing the level of spiritual knowledge of young people based on the advanced technologies of a systematic approach.

Key words: Nationality, ideology, people, manners, society, neighbourhood, education, community, family, dream, goal.

Kirish

Bugun milliy madaniyatimiz, ilm-fan, adabiyot va san'atimiz yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvar ajdodlarimizning boy merosini o'rganish, targ'ib etish, uning mazmun-mohiyatini yosh avlod ong-u shuuriga singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, yoshlar ma'naviy bilim darajasini tizimli yondashuvning ilg'or texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayoni katta ahamiyat kasb etmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilib, "Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish" muhim vazifa sifatida e'tirof etilgan.^{1} Shu nuqtai nazardan qaraganda oliy ta'lim jarayonida talaba yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etishga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, yangicha ishlash mexanizmlarini joriy etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, ma'naviyatning konseptual asoslari milliy maktablar zaminida vujudga kelgan g'oyaviy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shilgan uzoq o'tmishimiz bilan bog'liq. Demak, o'tmish va bugun bilan hamnafas talaba yoshlar ma'naviy olamini boyitish ta'lim va tarbiya nazariyasining tadqiqot predmeti bo'lib, quyidagi tushunchalar konseptual ilmiy talqinni talab etadi:

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda ularning yoshlar tarbiyasiga ta'siri;
- pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning ob'ekti, predmeti, vositalari, samarali shakl va metodlari;
- ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari;
- ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etishga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligi;
- yoshlar bilan hamkorlikda ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etishning samarali mazmuni va yaxlit mexanizmi ;

Metodologiya

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g'oyalari, uslubiy yondashuvlari ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ma'naviyatimizni yoshlar ongiga singdirish, uning sifatini tizimli tashkil etishdagi muammolar, usul va vositalarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, ta'limni ijodiy va individual tizimli tarzda tashkil etish va boshqa xususiyatlar bo'yicha izlanishlarni tashkil etmoqda.

Shu asnoda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshiradi. Oliy ta'lim talabalarini rivojlanib borayotgan texnologiyalar asosida bilim darajasini rivojlantirish, ajdodlarimizning ilmiy ma'naviy me'roslarini o'rganishda innovatsion texnologiyalarga tizimli holda yondashish samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida tan olinmoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, hamda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o'zgartishlar kiritish bo'lib, bu masalaga pedagogik faoliyatning psixologiyasi nuqtai nazari bilan qaraganda, ta'lim-tarbiya berish jarayonida professor o'qituvchilar qator vazifalarni bajarishi kuzatiladi. Ularning muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: axborot berish, hayot yo'lini tanlashni o'rgatish, madaniylashtirish, o'zini anglashni o'rgatish, pozitiv "men"ni shakllantirish, kasbga tayyorlash, o'zini nazorat qilishni o'rgatish, motivlashtirish, muloqotga tayyorlash (jumladan kasbiy), qadriyatlarni shakllantirish, maqsadni shakllantirishni o'rgatish. Tizimli tahlilda tamoyillarni asoslash-uslubiy konsepsiyani belgilashning dastlabki bosqichi hisoblanadi [2].

Shuni ta'kidlash lozimki, axborot texnologiyalarining kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish asosida ta'lim jarayonida yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish yo'nalishida kamdan-kam ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Boshqaruvda tizimli yondashuv masalasiga e'tibor qaratilganda shuni qayd etish mumkinki, tizimli yondashuv tashkilotni bir butun yaxlit elementlardan tashkil topgan tizim sifatida ifodalaydi.

Tahlil va natijalar

Tizimli yondashuv: Bugungi kunda deyarli barcha fanlar (uzviy va uzluksizlik nuqtai nazaridan) tizimli asosda qurilgan. Tizimli yondashuvning muhim jihati - uni qo'llashning yangi tamoyilini ishlab chiqish bilim, yagona va maqbul yondashuvni (umumiy metodologiyani) yaratish, uni ob'ektga qo'llash, kafolatlangan maqsadni olishga olib keladi. Binobarin, bilishning asosiy ilmiy usuli tahlil bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Tahlil tadqiqot muammosini hal qila oladigan shaklga keltirish imkonini beradi. Tahlil (qadimgi yunoncha o'nilus – parchalanish) - o'rganilayotgan ob'ektni uning tarkibiy qismlariga aqliy yoki haqiqiy qismlarga ajratish, qismlarning

xususiyatlarini yoritib berish va butun xususiyatlarini qamrab olish amallaridan iborat (sintez).

Bugungi shiddat bilan odimlab borayotgan qarashlarimiz zamirida murakkab ob'ektni tekshirishda uning tarkibiy qismlari tahlil qilinadi va yaxlit ob'yektning xususiyatlari ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. To'g'ri tahlil qilganimizda, doim faoliyatimiz mobaynida tizimli yondashuv asosida tahlilni qo'llaymiz. Ammo, tizimli yondashuvni qo'llagan holda, biz murakkab ob'ektni tashkil etadigan tarkibiy qismlarga ajratmaymiz, balki boshqa ba'zi belgilari (asoslari) bo'yicha farqlaymiz. Masalan, ko'pgina tadqiqot maqsadlarida ijtimoiy guruh odamlardan emas, balki bir qatorda fikrlaydigan insonlardan iborat deb hisoblanishi mumkin (va kerak). Bu tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv, birinchi navbatda, o'rganilayotgan obyekt tizim - kompozitsion obyekt ekanligini anglashdan iborat bo'lib, uning xususiyatlari uning qismlari xossalari yig'indisiga kamaymaydi. Tizimli yondashuv bizni tizim xususiyatlarini uning tarkibiy qismlarining xususiyatlari orqali ifodalashni to'xtatishga va butun tizim xususiyatlarining ta'riflarini izlashga majbur qiladi. Tizimli yondashuv tizimga maxsus tadqiqot usullari va vositalarini - tizimli, funksonal, korreksiya tahlilini va boshqalarni qo'llashni talab qiladi.

Tizim bir butunlik sifatida qanday qilib faoliyat ko'rsataётganligi yoki rivojlanayotganligi tushunib yetilmagunicha, uning tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar ushbu rivojlanish bo'yicha to'liq bo'lgan ma'lumotni bermaydi. Tizimga yangi elementlarni kiritish va eskirgan elementlarni chiqarib tashlash imkoniyatining mavjudligi uning faoliyatiga salbiy ta'sir etmasligi lozim. Tizimli tahlilda tamoyillarni asoslash uslubiy konsepsiyani belgilashning dastlabki bosqichi hisoblanadi [3].

Xulosa

Virtual lavhalar yordamida she'rning mazmunida ifoda etilgan fikrlarni yanada tushunalibroq tarzda ko'rsatish imkoniyati mavjud. Bunday ko'rinishdagi virtual lavhalarining afzallik tomonlari shundan iboratki, ular yordamida katta yoshdagi insonlarga mo'ljallangan materiallarni kichik yoshdagi o'quvchilarga ham ko'rsatish va tushuntirish imkoniyati yaratiladi [4]. Bu esa axborot texnologiyalarining multimediya va dasturiy vositalari hamda pedagogik texnologiyalarni shaxsga yo'naltirilgan tamoyillari asosida matn ko'rinishida berilayotgan lavhalarining imitatsion modellarini yaratish orqali matnda aks ettirilgan materiallarning mazmun-mohiyatini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, bilimning rivojlanib borishi ko'plab yangi faktlarni, hayotning har xil jabhalaridan bo'lgan ma'lumotlarni kashf etilishiga hamda ularni to'plashga va shu orqali insoniyatni ushbu to'plangan bilimlarni tizimlashtirishga, xususiylikda umumiylikni, o'zgaruvchanlikda turg'unlikni topishga majbur qilib qo'ydi. Shu asnoda

ta'kidlash joizki, fikrlashni tahlilga, sintezga bo'linishi va bu qismlar o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudligi tizimli tahlilning yaqqol nishonasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni;
2. Ziyaeva M.F, Abduvahobova D.E, Xazratkulova A.V / Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2021-yil №6) Oliy ta'lim tizimida talaba yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyalari.
3. Ziyaeva M.F, Oliy ta'lim tizimida talaba yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyalari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021-yil;
4. Lutfillayev M.H. Pedagogik dasturiy vositalar va ulardan multimediali elektron darsliklar yaratishda foydalanish // Xalq ta'limi. –Toshkent: -2002-y. -№6. - B. 99-101;
5. Yusup o'g'li Madatov Ilhom. "oliy ta'lim muassalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish: muammo va yechimlar." *fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi* 5.1 (2024): 1-10.
6. Yusup o'g'li Madatov Ilhom. "Mustaqil ta'limni " Blended learnin" texnologiyasi asosida tashkil etish." *Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi* (2022): 126-131.